



АКТУАР МОЛИЯ ВА БУХГАЛТЕРИЯ ХИСОБИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Vol. 4 Issue 01 | pp. 31-38 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTI XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH



Quvondiqov Farrux Ibragimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqodchisi
E-mail: quvondiqovfarrux@gmail.com

Annotation: Maqolada nodavlat oliy ta'lif tashkilotini moliyalashtirishning zamonaviy nazariyalarini va ularning o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Oliy t'lim tizimini moliyalashtirishda mablag'larining roli to'g'risidagi ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Tadqiqotlar asosida nodavlat oliy ta'lif tashkilotida kontrakdan tushgan mablag'larni maqsadli sarflashda ta'sischilarni roli va uni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Keywords: oliy ta'lif muassasasi, moliyaviy menejment, moliyalashtirish, moliyaviy mustaqillik, o'qitishning to'lov kontrakti, ta'lif to'lovi, nodavlat ta'lif tashkiloti, xarajatlar, ta'lif tizimi tizimini moliyalashtirish, ta'lif oliy ta'lif bozori.

ОПТИМИЗАЦИЯ РАСХОДОВ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ НЕГОСУДАРСТВЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Қувондиқов Фарруҳ Ибрагимович

Ташкентского государственного экономического университета
E-mail: quvondiqovfarrux@gmail.com

Annotation: В статье анализируются современные теории финансирования негосударственных организаций высшего образования и их особенности. Сформированы научные выводы о роли фондов в финансировании системы высшего образования. На основе исследования разработана роль учредителей в целевом расходовании средств, полученных по договору в негосударственной организации высшего образования, а также научные предложения и рекомендации, направленные на ее улучшение.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, финансовый менеджмент, финансирование, финансовая независимость, договор оплаты обучения, оплата

обучения, негосударственная образовательная организация, затраты, финансирование системы образования, рынок высшего образования.

OPTIMIZING COSTS AND IMPROVING FINANCING SYSTEM OF NON-GOVERNMENT HIGHER EDUCATION ORGANIZATION

Kuvondiqov Farrux Ibragimovich

E-mail: quvondiqovfarrux@gmail.com

Independent researcher of Tashkent State University of Economics

Abstract: The article analyzes modern theories of financing non-governmental higher education organization and their specific aspects. Scientific conclusions about the role of funds in financing the higher education system have been formed. Based on the research, the role of the founders in the targeted spending of the funds received from the contract in the non-state higher education organization and scientific suggestions and recommendations aimed at its improvement were developed.

Key words: higher education institution, financial management, financing, financial independence, tuition fee contract, tuition fees, non-governmental educational organization, non-governmental educational organization costs, financing of the educational system, higher education market.

1. Kirish

Mamlakatimiz rijojlanishi borasida keyingi yillarda hayotining barcha soha va tarmoqlarini XXI asrning yuksak demokratik talablari asosida yangilash, inson huquq va erkinliklari, manfaatlarini ta'minlash, jahon hamjamiyati bilan uyg'un va hamnafas bo'lib yashash, milliy tiklanishdan milliy yuksalishga erishish yo'lida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ana shunday strategik maqsadlarning eng muhim uzviy qismi bo'lgan ilm-fan va ta'lim-tarbiya tizimini, jumladan, oliy ta'lim taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish ustuvor masala sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Qisqa muddat ichida respublikamiz oliy ta'lim muassasalari soni qariyb ikki barobar oshdi, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, yangi ta'lim muassasalari, xususan nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ochilganligi, tizimda o'qishning kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlar faoliyati yo'lga qo'yilgani, maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga qamrovi 2016 yildagi 9 foizdan bugungi kunga kelib 28 foizga, 2030 yilga qadar 50 foizga yetkazishni alohida ta'kidlash lozim [1]. Ma'lumki, mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohalardagi keng ko'lamlili islohotlar xalq bilan muloqot prinsipiga uyg'un va hamohanglikda amalga oshirilayapti. Ta'lim tizimidagi strategik o'zgarishlar ham bunga yorqin misol bo'la oladi.

Binobarin, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish, sohaga davlat-xususiy sherikchilikning samarali mexanizmlarini joriy etish, bu borada ilg'or xorijiy tajribalarni o'rghanish bo'yicha qator yangiliklarga qo'l urildi va amalga oshirilmoqda.

2. Mavzuning dolzarbliги

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimini moliyalashtirishga ko'plab mamlakatlar alohida e'tibor qaratadi. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda davlat xarajatlarining o'rtacha 12-14 foizi ta'limga yo'naltiriladi. Dunyo mamlakatlarida oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish, asosan, ikki turda, ya'ni davlat mablag'lari hamda ta'lim xizmatlari ko'rsatilishi asosida tushadigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash lozimki, dunyoda oliy ta'limga umumiylar xarajatlarning o'sishi yuqori iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar rivojlanishiining muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo mamlakatlarda oliy ta'limni rivojlantirish uchun jami xarajatlar, hisob-kitoblarga ko'ra, har yili o'rtacha 0,8 foizga ortgan. Ushbu maqsadlar uchun YaIMning o'rtacha 1,4 foizini, Kanada, Chili, Buyuk Britaniya va AQShda oliy ta'limga sarflangan mablag' yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning 3 foizini tashkil qildi. IHTT(Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) mamlakatlari davlati, korxonalarini va uy xujaliklari har bir talaba uchun o'rtacha 17 100 AQSh dollari, shundan 68 foizi asosiy xizmatlar, 32 foiz qo'llab-quvvatlash xizmatlari va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun sarfladi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini hisobga olmaganda, ko'rib chiqilayotgan mamlakatlarda har bir talaba uchun sarflangan mablag' o'rtacha 11 700 AQSh dollarini tashkil qildi. "IHTT mamlakatlari o'rtacha jon boshiga YaIMning 37 foizini universitet talabasiga sarflagan bo'lsa, har bir universitet talabasi uchun ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlar aholi jon boshiga YaIMning 11 foizini tashkil qildi"¹. Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, jahon amaliyotida oliy ta'limni moliyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda va bunda nodavlat ta'lim tashkilotlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Xusan, QS(Quacquarelli Symonds) World Universiteti Rankings ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yildagi "Eng yaxshi jahon universitetlari reytingi"dagi TOP-10 talikda 4 ta AQSh, 4 ta Buyuk Britaniya xususiy universitetlari o'rin olganligi buning yaqqol tasdig'idir². Shunga ko'ra, AQShda nodavlat oliy ta'limi davlat oliy ta'limini, nafaqat, ko'lami, balki, sifati, tanlashning jiddiyligi va obro'-e'tibori bo'yicha ham ortda qoldiradi³.

Jahonda global muammolar, alohida mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda oliy ta'limning ommaviyligi, yuqori malakali mutaxassislar, olimlarga bo'lgan talabning ortib borayotgani, buning barobarida, uzlusiz ta'limga bo'lgan ehtiyojning shakllanishini oliy ta'limning yuqori imkoniyatlar manbasi bo'lgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari hisobidan barqaror ta'minlash va ularni moliyalashtirish tizimi samaradorligini oshtotsh va xarajatlarni optimallashtirish evaziga yanada takomillashtirish, jumladan, bu boradagi

¹ Education at a Glance 2021: OECD Indicators. - Paris: OECD Publishing. 2021. - 474 p

² QS World University Rankings 2024: Top global universities // <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings>

³ Воробьева И.И. Финансирование высшего образования в развитых странах: современные тенденции. С. 29. // chrome-extension://efaidnbmnnbcpcajpcglclefindmka/j/http://edoc.bseu.by:8080/bitstream/edoc/95071/1/Vorobeva_28_32.pdf

xorijiy tajribalarni o'rganish yetarlicha ilmiy tadqiq etilmagan. Shuningdek, iqtisodiyotda xususiy setorning o'rni va ulushi ortib barayotgan bugungi sharoitda beba ho deb baholanuvchi inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanishda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining o'rni hamda ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirishning dolzarbliji, iqtisodiy ichki resurslar taqchilligi sharoitida tobora kuchayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunga kelib davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning zaruriy va zamonaviy tashkiliy-huquqiy asoslari, iqtisodiy-texnik asoslari shakllantirildi. Mazkur imkoniyatlar zamirida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish ustuvor vazifa etib belgilandi⁴. Ushbu maqsad yo'lida erishilgan natijalarga ko'ra, respublikamizda 2024 yil 1 yanvar holatida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalari soni 213 tani tashkil etadi. Shundan 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta'lim muassasasidir. Hozirda 213 ta oliygohma 1 million 300 ming nafardan ziyod talaba tahsil olib, bu ko'rsatkich yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 42 foizga oshganligini ko'rsatadi⁵.

O'z navbatida, nodalat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishda ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish borasida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularning asosiyлари sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- aksariyat nodalat oliy ta'lim tashkilotlarining tashkil etilganligiga qisqa vaqt bo'lganligi bois o'zini o'zi moliyalashtirishda yetarli tajribalarga ega emasligi va faoliyat olib borishni tartibga solib turuvchi me'yoriy hujjatlar yetarli emasligi;
- ularning o'zini rivojlantirish va unga zarur moliyaviy resurslarni jalg etishda aholini oliy ta'lim bilan qamrab olishdagi darajasi va tajribasining pastligi;
- ularning aksariyatida asosiy vositalarning yetishmasligi va ijara asosida faoliyat ko'rsatishi;
- yuqori ilmiy salohiyatli va pedagogik tajribali professor-o'qituvchilarini jalg etish, saralab olish va faoliyatini rag'batlantirish tizimining shakllanmaganligi;
- buyurtmachilar bilan hamkorlik aloqalarining keng yo'lga qo'yilmaganligi;
- nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga iqtidorli talabalar uchun davlat grantlari kvotasi ajratish;
- aholining ma'lum qatlamiga oliy ta'lim xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida imtiyoz va imkoniyat manzilliliginini ta'minlash;
- oliy ta'limning davlat buyurtmalari bilan birga xususiy sektor ishlab chiqapruvchi korxona va tashkilotlar talab va taklifini hamda portfel buyurtmasini bajarishda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari rolini oshirish;

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. // <https://lex.uz>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi brifingida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi axborot xizmati rahbari Nazokat Abduqunduzovaning axboroti. // <https://aoka.uz/uzb>

- respublikamizda nomdor stipendiyalari (Prezident, Al-Xorazmiy, A.Navoiy, A.Beruniy va hok...) tanlovida ishtirok etishi va moliyalashtiriladigan sohalarini belgilash;

- Davlat tomonidan e'lon qilingan Ilmiy va ijodiy loyihalarga ishtirok etishni ta'minlash takliflarni qo'llab-quvvatlash;

- xorijiy hamkorliar, ilmiy-tadqiqot institutlari va loyiha buyurtmachilar bilan yuqori saviyalarda hamkorliklarning yo'lga qo'yilmganligi va boshqalar.

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida bunday muammolarning mavjudligi, ular faoliyatini moliyalashtirish sohasida tegishli tadqiqot ishlarini olib borishni taqqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-“O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiklash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 dekabrdagi “Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1028-sonli Qarori ushbu sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur ilmiy tadqiqot ish muayyan darajada xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar tanlangan dissertatsiya mavzusining dolzarbligini va hal etilishi kutilayotgan ilmiy-amaliy ahamiyatga molik muammoga bag'ishlanganligini tasdiqlaydi.

3. Xalqaro ilmiy nashrlar

Muammoning o'r ganilganlik darjasи. So'nggi yillardadavlat oliy ta'lim muassasalari qatorida nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va uni moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha MDH va xorijiy mamlakatlarda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilayotgan bo'lib, tadqiqot ishimiz davomida xorijiy iqtisodchi olimlardan N.Long, L.Yang, B.McCall, U.Teichler, B.Poul, S.Marginson, M.Lung, I.Moldovan, N.Alexandra, J.Erina, I.Erins, A.Goksu, G.Goksu, I.Abankina, V.Vinarik, L.Filatova, G.Lukichev, B.Filippov, N.Nasibova, A.Adambekova, N.Amankeldi, S.Belyakova, A.Zaborovskaya, T.Klyachko, I.Korolev, N.Ozerova, Ye.Polushkina⁶ va boshkalar tomonidan oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimi yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan S.Gulyamov, N.Xaydarov, T.Malikov, N.Jumaev, A.Vaxobov, A.Juraev, D.Pulatov, M.Saidov, D.Nabiev, D.Raxmonov, S.Buzrukxonov, A.Sherov, X.Rejapov, D.Pulatov, Z.Srojiddinova, B.Nurmuxammedova, Sh.Rasulov, D.Rustamova, K.Ibragimov, E.Odilov, A.Maxmudov,

⁶ Long N.V. “Financing higher education in an imperfect world” Economics of Education Review xxx (xxxx) xxxxxx, Yang L., McCall B. “World education finance policies and higher education access: A statistical analysis of World Development Indicators for 86 countries” International Journal of Educational Development 35 (2014) 2536, Teichler U. “Recent changes of financing higher education in Germany and their intended and unintended Consequences” International Journal of Educational Development 58 (2018) 37-46, Bolton Paul. “Tuition Fee Statistics”, Library of the House of Commons, 23 November 2010, page 2, section 1.2., Marginson S. “Global trends in higher education financing: The United Kingdom” International Journal of Educational Development 58 (2018) 26-36, Lung M., Moldovan I., Alexandra N. “Financing higher education in Europe: issues and challenges” Social and Behavioral Sciences 51 (2012) 938-942, Erina J. and Erins I. “Assessment of Higher Education Financing Models in the CEE Countries” Social and Behavioral Sciences 177 (2015) 186 - 189, Goksu A., Goksu G. “A Comparative Analysis of Higher Education Financing in Different Countries” Economics and Finance 26 (2015) 1152-1158, Насибова Н.К. Целевой капитал (эндумент-фонд) как источник финансирования интеллектуального потенциала вузов. // ВЕСТНИК ИрГТУ №8 (91) 2014, Лукичев Г.А., Филиппов В.М. “Системы финансирования высшего образования в зарубежных странах” Учеб. пособие. - М.: РУДН, 2008. – 194 с., Адамбекова А.А., Аманкелди Н.А. “Финансирование системы образования Казахстана (динамика расходов на образование: отечественный и международный опыт)” // Сетевой журнал “Научный результат”. Серия “Экономический исследования”. - Т.2 №1(7), 2016, Белякова С.А., Заборовская А.С., Клячко Т.Л., Королев И.Б., Озерова Н.Б., Полушкина Е.А. “Модели финансирования вузов: анализ и оценка” анализ и оценка, -М.: Технопечать 2005, 274 с.

Abduxaparova D.M., Hamraev M.S.⁷ ishlarida ta'lim tizimi, xususan, oliv ta'lim tizimini moliyalashtirish, ularning moliyaviy resurslarini boshqarish masalalari yoritilgan.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapurdag'i nodavlat oliv ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos. Ta'lim tizimiga baho beruvchi, dunyo tan olgan oliv o'quv muassasalarining jahon reytinglarida ham nodavlat ta'lim muassaslari eng yuqori o'rirlarni egallab kelmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda nodavlat oliv ta'lim tashkilotlar soni 67 tani tashkil etmoqda. Ularning soni yanada ko'payishi shubhasiz. Xo'sh, boshqa muqobillarini aslo kamsitmagan holda bunday ta'lim maskanining afzalliklari nimalarda ko'rindi?

Avvalo, nodavlat oliv ta'lim tashkilotlarda yaratilgan shart-sharoitlar barcha talablarga javob beradi. Ularda qo'llanilayotgan o'quv reja hamda o'quv dasturlari asosida har bir talabaga alohida-individual yondashiladi.

Navqiron avlodga o'z ustida mustaqil ishlashi uchun barcha qulayliklar yaratiladi. Qiziqishlari va ishtiyoqidan kelib chiqib ta'lim beriladi, ikki-uchta xorijiy til o'rgatiladi. O'qishdan tashqari muassasaning o'zida tashkil etilgan turli fan to'garaklari, sport mashg'ulotlari samarali olib boriladi. Bundan ota-onha ham, pedagog ham, talaba ham manfaat topadi.

Modomiki, mamlakatimizda nodavlat oliv ta'lim muassasalarini ochilishi xizmatlar eksportini rivojlantirishga olib keladi. Diyormizga kelgan har bir xorijiy talaba kontrakt to'lovini amalga oshirishdan tashqari u o'z ehtiyojlarini qondirish uchun yiliga o'rtacha 10 million so'm sarf-xarajat qiladi. Bu ham, o'z o'rniда, iqtisodiyotimizni rivojlantirishga o'zining xissasini qo'shadi.

Nodavlat oliv ta'lim muassasalarining tashkil etilishi respublikamizda yangi ish o'rinalar yaratilishi, nodavlat va davlat ta'lim sektori o'rtasida sog'lom raqobat muhitini paydo bo'lishi, yoshlarimizni o'zlarini xohlagan yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olishi, ta'lim va sanoatni chambarchas bog'lanishi, ta'lim va kadrlar sifatini oshishi, davlat byudjetiga tushumlarning ko'payishi, byudjetdan qoplanadigan sarf-xarajatlarning kamayishi kabi ko'p masalalarga ijobjiy yechim bo'la oladi.

Raqobat bor joyda esa o'sish bo'ladi, o'sish bor joyda sifat bo'ladi, sifat bor joyda esa natija bo'ladi.

Nodavlat Oliy ta'lim tashkilotida Moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"⁸gi O'RQ-637-sonli qonuni, Soliq kodeksi,

⁷ Gulyamov S.S. va boshq. Uzbekistonda inson kapitali omillarining o'zaro aloqalari samaradorligi//Moliya jurnali. - Toshkent, 2014. - №4. 119-127 b.; Vaxobov A.V., Malikov T.S. Moliya. /Darslik - T.: Noshir, 2011. - 316 b., Malikov T.S., Gaydarov N. X., Moliya: umum davlat moliysi. / O'quv kullanma. - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009. - 556 b., Saidov M.X. Oly ta'lim tizimida moliyaviy boshkaruv: o'quv qo'llanma, -T. Tafakkur-Bo'stoni, 2011, 432 b.; Nabiev D. Ta'lim sohasidagi investitsiyalarini moliyalashtirish masalalari: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayorlangan dissertatsiya. - T., 2005; Raxmonov D. "O'zbekistonda ijtimoiy sohanni moliyalashtirishni takomillashtirishning metodologik asoslari. -T.: Fan va texnologiyalar, 2017, 248 b.; Pulatov D., Nurmuhammedova B. Faznachilik /Darslik, - T.: Sano-standart, 2014, -272b.; Sherov A. Oly ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish yullari, Maxmudov A. Oly ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish, iqtisodiet fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 2020. - 54 b.; iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 2019. - 45b.; Ibragimov K. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning tashkiliy-uslubiy asoslarini takomillashtirish (Oly ta'lim muassasalari misolida) // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 yil; Odilov E. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"⁹gi O'RQ-637-sonli qonuni¹⁰ takomillashtirish // iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayorlangan dissertatsiya, - Toshkent, 2012. Abduxaparova D.M. Ta'lim muassasalarini nobyudjet manbalar ni xisobiga moliyalashtirishni takomillashtirish yullari (oly ta'lim muassasalari misolida). // iqtisodiet fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 2023. - 62 b.; Hamraev M.S. O'zbekistonda oliv ta'lim muassasalarini moliyaviy ta'minotini mustahkamlash masalalari. // iqtisodiet fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 2023. - 58 b..

Mehnat kodeksi va me'yoriy huquqiy hujjatlar asosida olib boriladi[3]. Ushbu Mazkur qonunga ko'ra, oliv ta'lim tizimi bakalavriat va magistraturadan iborat ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, har bir ta'lim bosqichning o'ziga xos xususiyatlari asoslangan. Unda umumiyl o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiyl o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega ekanligi belgilandi.

Ta'kidlash lozimki, respublikamiz olimlari tomonidan nodalat oliv ta'lim tashkilotlari xarajatlarini optimallashtirish va moliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalasi alohida ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

4. Tadqiqot vazifalari

Ushbu ilmiy ishning olib borish va maqsadga erishish uchun izlanish oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- nodavlat oiy ta'lim tashkilotlari xarajatlarining tarkibi, mazmuni, yo'nalishlarini o'rganish;
- nodavlat oiy ta'lim tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirishning manbalari va ularning shakllanishining konseptual asoslarini o'rganish;
- nodavlat oiy ta'lim tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish tizimiing o'ziga xos xususiyatlari va xorij tajribalarini o'rganish;
- O'zbekictonda nodavlat oiy ta'lim tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirishning joriy holatini tahlil qilish;
- O'zbekictonda nodavlat oiy ta'lim tashkilotlari rivojlanishi va ular xarajatlarini moliyalashtirishning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi moliyaviy-iqtisodiy omillarni o'rganish;
- O'zbekictonda nodalat oliy ta'lim tashkilotlari xarajatlarini optimallashtirish va moliyalashtirish tizimini yanata takomillashtirish borasida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va boshqalar.

5. Xulosa va takliflar

Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy yangiliklar quyidagilardan iborat:

- nodalat oliy ta'lim tashkilotlari xarajatlarini optimallashtirish va moliyalashtirish tizimini takomillashtirish maqsadida xorijiy davlat fuqarolarini tulov-kontrakt asosida masofaviy ta'lim olish shaklida o'qitishni yo'lga qo'yish tadqiq etish;
- nodalat oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy salohiyatini oshirish maqsadida kadr buyurtmachilari bilan hamkorlik strategiyalarini ishlab chiqish asosida sifatli va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash amaliyotini shakllantirish taklifini tayyorlash;
- nodalat oliy ta'lim tashkilotlarida qabul jarayoni va ko'lамини oshirish maqsadida davlat va nodavlat yo'nalishlaridagi nomdor stipendiantlarni saralash va g'oliblarni stipendiyalar bilan rag'batlantirish amaliyotini joriy etishni taklif etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy xujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992й.– 46 b.
2. O'zbekisto Respublikasining Mehnat kodeksi-2022й..
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. (2017. 7-fevral) Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-3107036>.
4. Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O'zR Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlish palatalari qo'shma majlisidagi nutq. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli qonuni.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son qarori.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plam va boshqa adabiyotlar.

1. D.Raxmanov, O'zbekiston ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Ilmiy (PHD) i.f.n ilmiy daraja olish uchun yozilgan avtoreferati. 2018y. 70-71 bet.
2. M.Kimsanboev. "Uzluksiz ta'lim tizimi xarajatlarini moliyalashtirishda davlat byudjetining ahamiyati". 2022yil. 05 may – 1607bet.
3. Raxmonov D.A. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: i.f.d. ... avtoreferat. – Toshkent, TDIU. – 2018. – 72 bet.
4. N.Raxmonov "Oliy ta'lim muassasalari sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlash" mavzusida "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2019 yil.
5. Azimov A.E. "Ta'lim tizimini moliyalashtirishning xorij tajribasi" Zam'onaviy ta'lim. – 2014. - №2. – B.17-22. 8. Lijing Y., Brian M. World education finance policies and higher education access. A statistical analysis of World Development Indicators for 86 countries//International Journal of Educational Development 35, 2014. – pp. 25–36.
6. G'ulomov S., Ochilov I., Saydaxmedov O. "Intellektual iqtisodiyotda samaradorlik omillari" O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali. – Toshkent, 2015. - №6. – B.38-41betlar.

